УДК: 616.379-008.64, 611.1

PSIXOGEN TABIATLI YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA FITOTERAPIYANING SAMARADORLIGI

Kuvandikov Golib Berdirasulovich - assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarkand, Uzbekistan)

Annotatsiya. *Dorivor giyohlardan foydalanish hali ham bir qator kasalliklarni, shu jumladan yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda muqobil yondashuv hisoblanadi.Yurak-qon tomir kasalliklari (YUQTK) salomatlik uchun katta muammo bo'lib, ularning tarqalishi tobora ortib bormoqda. Ular butun dunyoda kasallanish va o'limning asosiy sababi bo'lib qolmoqda. Ko'pgina "qiyin" kardiologik bemorlarning terapiyaga chidamliligi mutaxassislarni psixosomatik buzilishlarga va ularni davolash usullariga e'tibor berishga undaydi. Bir qator tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, kardiologlarga murojaatlarning 40-60 foizigacha psixoemotsional holat tufayli yuzaga keladigan funksional buzilishlar bilan bog'liq. Shuning uchun bunday buzilishlarni davolash zamonaviy tibbiyotning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *fitoterapiya, yurak-qon tomir kasalliklari, dorivor o'simliklar, psixosomatik kasalliklar, inson salomatligi.*

EFFECTIVENESS OF PHYTOTHERAPY IN CARDIOVASCULAR DISEASES OF A PSYCHOGENIC NATURE

Kuvandikov Golib Berdirasulovich - assistant
Samarkand state medical university (Samarkand, Uzbekistan)

Annotation. *The use of medicinal herbs is still an alternative approach to the treatment of a number of diseases, including cardiovascular ones.Cardiovascular disease (EUQTK) is a major health problem, with increasing prevalence. They remain the leading cause of morbidity and mortality worldwide. The resistance of many" difficult " Cardiological patients to therapy encourages specialists to pay attention to psychosomatic disorders and methods of their treatment. According to a number of studies, up to 40-60% of applications to cardiologists are associated with functional disorders caused by psychoemotional state. Therefore, the treatment of such disorders remains an important task of modern medicine.*

Key words: *phytotherapy, cardiovascular diseases, medicinal plants, psychosomatic diseases, human health.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФИТОТЕРАПИИ ПРИ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ПСИХОГЕННОЙ ПРИРОДЫ

Кувандиков Голиб Бердирасулович - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Использование лекарственных трав по-прежнему является альтернативным подходом к лечению ряда заболеваний, в том числе сердечно-сосудистых.Сердечно-сосудистые заболевания (ССЗ) являются серьезной проблемой здравоохранения, распространенность которой растет. Они остаются основной причиной заболеваемости и смертности во всем мире. Устойчивость многих "трудных" кардиологических пациентов к терапии побуждает специалистов обращать внимание на психосоматические расстройства и методы их лечения. Согласно ряду исследований, до 40-60% обращений к кардиологам связаны с функциональными нарушениями, вызванными психоэмоциональным состоянием. Поэтому лечение таких нарушений остается важной задачей современной медицины.*

Ключевые слова: *фитотерапия, сердечно-сосудистые заболевания, лекарственные растения, психосоматические заболевания, здоровье человека.*

Dolzarbligi Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari o'lim va inson umrining qisqarishi, uning ish qobiliyatini yo'qotishining asosiy sabablaridan biridir.So'nggi o'n yilliklarda psixosomatik patologiyali yurak-qon tomir kasalliklari sonining sezilarli darajada oshishi kuzatilmoqda [1,3]. Psixosomatik buzilishlar aholi orasida, ayniqsa, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Psixosomatik buzilishlarning chastotasi aholi orasida 15 dan 60% gacha, birlamchi amaliyot bemorlari orasida esa 30 dan 57% gacha o'zgarib turadi [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tibbiy yordam olayotgan bemorlarning 1/3 qismi birinchi navbatda hissiy buzilishlardan aziyat chekadi [5]. Psixosomatik kasalliklarning klassik to'plamiga gipertoniya kasalligi, bronxial astma, tireotoksikoz, 12 barmoqli ichak yara kasalligi, nospetsifik yarali kolit, neyrodermit, revmatoid artrit va boshqa bir qator kasalliklar

kiradi [4,6]. Bemorning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning kasallik holatini davolash yig‘malar kompozitsiyalarini individual tanlash, shuningdek, dori vositalarining dozasi va qabul qilish tartibi orqali amalga oshirilishi mumkin [7].

Maqsad. Ushbu maqolaning maqsadi — psixogen tabiatli yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda fitoterapiyaning samaradorligini baholash va uning an’anaviy yondashuvlarga nisbatan muqobil usul sifatidagi rolini aniqlashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqot Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi shahar shifoxonasiga 2024-yil oktyabrdan 2025-yil aprelgacha bo‘lgan davrda tibbiy yordam so‘rab murojaat qilgan 30 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan ayollar va erkaklar orasida o‘tkazildi. Barcha bemorlarda psixogen tabiatli yurak-qon tomir buzilishlaridan dalolat beruvchi shikoyatlar aniqlandi. Tekshiruv doirasida quyidagilar o‘tkazildi: umumiy qon tahlili (UQT), qonning biokimyoviy tahlili, elektrokardiografiya (EKG), xavotir va depressiya darajasini o‘zini o‘zi baholash shkalalari (HADS), dinamikada klinik kuzatuv. Bemorlar ikki guruhga bo‘lingan: biri an’anaviy dori-darmonlar bilan davolangan, ikkinchisi fitoterapevtik (sedativ va kardiotonik o‘simlik preparatlari asosida). Davolash kursidan oldin va keyin klinik va laboratoriya ko‘rsatkichlari taqqoslandi.

Dorivor valeriana organizmga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ildizpoya va ildiz preparatlari markaziy nerv sistemasi qo‘zg‘aluvchanligini pasaytiradi, tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, silliq muskullar spazmini kamaytiradi, yurak faoliyatini normallashtirishga yordam beradi. Ularning ta’siri ham MNS tomonidan boshqarilishi, ham miokard va yurakning o‘tkazuvchi tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Qalampir yalpiz bargi tarkibida efir moyi, organik kislotalar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, karotin, mikroelementlar (mis, marganes, stronsiy va boshqalar) mavjud. Tinchlantiruvchi va spazmolitik ta’sirga ega, ayniqsa oshqozon-ichak trakti spazmlarida. Melissa singari mustaqil ravishda ham, to‘plamlarda ham qo‘llaniladi.

Yurak arslonquyruq o‘ti. Markaziy asab tizimiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, bu esa valeriana preparatlaridan kuchliroqdir. Shu bilan birga u gipotenziv va kardiotonik ta’sir ko‘rsatadi [3]

Qizil do‘lana gullari va mevalari biologik faol moddalarga boy. Ularning tarkibida flavonoidlar (jumladan, kversetin, giperin, giperozid, viteksin), turli organik kislotalar (limon, oleanol, ursol, krategus, kofe, xlorogen), shuningdek, karotinoidlar, oshlovchi moddalar, yog‘li moylar, pektinlar, triterpen va flavon glikozidlari, sitosterin, xolin, vitaminlar mavjud. Bunday tarkib tufayli o‘simliklar kardiologik fitoterapiyada qo‘llaniladi. [2].

Tadqiqot natijalari:

6 haftalik terapiya natijalariga ko‘ra, ikkala guruhdagi bemorlarda ijobiy dinamika kuzatildi.

1-jadval.

Psixogen tabiatli yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda davolanishdan oldin va keyin qiyosiy klinik va laboratoriya ko‘rsatkichlari

Ko’rsatkich	Norma	I guruhdavodan oldingi va keying natija	II guruh davodan oldingi va keying natija
Gemoglobin (g\l)	120–150	118 / 125	117 / 123
Eritrotsitlar ($\times10^{12}$/l)	3.8–5.2	3.6 / 3.9	3.5 / 3.8
Leykotsitlar ($\times10^{9}$/l)	4.0–9.0	5.3 / 5.5	5.2 / 5.4
EChT (mm/s)	2–15	17 / 13	18 / 14
HADS –xavotir shkalasi (ball)	0–7 (norma)	14 / 6	13 / 5
HADS – depressiya shkalasi (ball)	0–7 (norma)	10 / 5	9 / 4
EKG	O’zgarishlarsiz	Sinusli taxikardiya / ritmning normallashuvi	Sinusli taxikardiya / ritmning normallashuvi

Eslatma: Keltirilgan ma’lumotlar ikkala guruhdagi bemorlarda klinik va laboratoriya ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ko‘rsatadi. Shuningdek, HADS shkalasi bo‘yicha xavotir va depressiya darajasining pasayishi. Ayniqsa, hissiy holatning yaxshilanishi va yurak urishining barqarorlashuvi ko‘zga tashlanadi.

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, ikkala guruhda ham klinik jihatdan sezilarli yaxshilanishga erishildi, ammo dori guruhida o‘zgarishlar yanada aniqroq edi. Shu bilan birga, fitoterapiya nojo‘ya ta’sirlarsiz yaxshi chidamlilik va psixoemotsional holatga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda xulosa qilish mumkinki, zamonaviy fitoterapiya yurak-qon tomir tizimining ko‘plab kasalliklari asosida yotuvchi psixosomatik buzilishlarni samarali davolash uchun yetarli salohiyatga ega, shu jumladan kam qo‘llaniladigan va asossiz ravishda unutilgan dorivor o‘simliklar, vositalar va usullar mavjud. Fitoterapiya vegetativ buzilishlar va psixogen kardial shikoyatlarda yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Arslonquyruq, do‘lana, limono‘t va valeriananing qo‘llanilishi

dori-darmonlar yuklamasisiz barqaror ijobiy dinamikaga erishish imkonini berdi. Usul an'anaviy psixofarmakoterapiyadan voz kechilganda, ayniqsa yengil va o'rtacha namoyon bo'lgan bemorlarda muqobil yoki qo'shimcha yondashuv sifatida tavsiya etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Shaito A, Thuan DTB, Phu HT, Nguyen THD, Hasan H, Halabi S, Abdelhady S, Nasrallah GK, Eid AH, Pintus G. Herbal Medicine for Cardiovascular Diseases: Efficacy, Mechanisms, and Safety. Front Pharmacol. 2020 Apr 7;11:422.

2. Меликов Фархад Майсович Фитотерапия психогенных сердечно-сосудистых заболеваний // Бюллетень ГНБС. 2015. №114 (англ.).

3. Соколов С.Я., Замотаев И.П. Справочник по лекарственным растениям (фитотерапия). – М.: Медицина, 1984. – 463 с.

4. Park H. Y. et al. Systematic review and meta-analysis of cardiac neurosis for development of clinical practice guidelines of Korean medicine //Frontiers in Psychiatry. – 2024. – Т. 15. – С. 1302245.

5. Gaur R. A brief history: traditional Chinese medicinal system //Pharmacological Research-Modern Chinese Medicine. – 2024. – Т. 10. – С. 100387.

6. Kadirova E. et al. Harnessing phytotherapy: exploring alternative treatments for male infertility. – 2024.

7. Rausch H. et al. History and Present of European Traditional Herbal Medicine (Phytotherapy) //History, Present and Prospect of World Traditional Medicine. – 2024. – С. 131-234.